

MASOFAVIY TA'LIM

Xasanova Shaxlo Davron qizi

Professor o'qituvchi : Boboqulov Sherzod Sherqulovich

SamDCHTI Narpay Xorijiy tillar fakulteti

Annotatsiya: *Ushbu maqola hozirgi kunda ommalashgan va jadal rivojlanib kelayotgan masofaviy ta'lim tizimi , online o'qishning afzalliklari va kamchiliklari haqida .*

Kalit so'zlar : *pandimiya; sun'iy intellekt, ta'lim , nazariy, global, motivatsiya, xarajatlar, afzallik, kamchilik.*

Mamlakatimiz ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotgan bugungi kunda, turli ta'lim shakllari qatori ayniqsa, masofadan o'qitish keng jadallashmoqda. O'zi masofaviy ta'lim nima ? Uni qanday afzalliklari va kamchilik ta'raflari bor ? Online o'qigan yaxshimi yoki oflayn ? Bu savollarni barchasiga bir – bir to'xtalib o'tsak .

Bugungi kunda taraqqiyot tez sur'atlarda rivojlanmoqda va o'zgarmoqda . Har bir kunimiz yangiliklar o'zgarishlar oqimi ostida o'tmoqda . Vaholanki ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda . Yoshlarning samarali va ko'proq bilimlar olishi uchun turli ta'lim tizimlari , ma'sofaviy bilim olish imkoniyatlari yaratilgan .

Bugungi kunda dunyoda keng ommalashayotgan masofaviy ta'lim – o'quv jarayonining maqsadi, mazmuni, uslublari, o'qitish vositalari va internet texnologiyalari yordamida tinglovchi hamda o'qituvchilarning masofadan turib, interfaol muloqot qilish jarayoni hisoblanadi. Masofaviy ta'lim kundan kunga rivojlanib bormoqda va sun'iy intellekt, virtual haqiqat kabi texnologiyalar uni yanada takomillashtirmoqda. Ayniqsa pandemiya davrida masofaviy ta'limning ahamiyati va imkoniyatlari ko'pchilikka ayon bo'ldi. O'sha paytda insitut , maktab , kollejlarda o'qish vaqtincha to'xtatildi va davlat rahbarlari bu muammoga yechim sifatida masofaviy online dars tizimi ishlab chiqildi. Koronavirus pandemiyasi tufayli barcha idora va tashkilotlar, jumladan, ta'lim muassasalarda ham masofaviy yoki onlayn ishlash va o'qish tartibi joriy etildi. Umuman olganda, masofaviy o'qitish tizimi juda qulay bo'lib, iqtisodiyot va hayotni yanada raqamlashtirishga olib keladi.

To'g'ri bu tizim kimgadir qulay , kimgadir aksincha noqulayliklar tug'dirdi. Masofadan turib yoki odatdagiday sinfxonalarida ta'lim olish – bu ko'plab abituriyentlarni qiynayotgan savol. Ko'pincha o'quvchilar masofaviy ta'lim olishni tanlashdan qo'rqishadi, chunki ular ushbu ta'lim usulining ijobiy va salbiy tomonlariga aniqlik kiritmaydilar. Agar siz shu tartibda bilim olishni xohlasangiz, masofaviy bilim olishning afzalliklari va kamchiliklarini tushunib olishingiz lozim.

Masofaviy ta'lim olishning afzalliklari .

Siz o'qish bilan bir qatorda ish bilan ham shug'ullanishingiz mumkin. Aslida masofaviy o'qishni tanlagan abiturentlarning asosiy qismi bu o'z ishidan voz kechishni istamaydigan,

ammo bilim olishni xohlaydiganlardir. Onlayn ta'limda siz dam olish kunlarida, ishdan qaytganingizda hatto yarim kechada o'qishingiz mumkin.

Mablag'ingiz tejaladi. Iqtisodiy jihatdan maqbul variantlarni qidirayotgan o'quvchilar uchun onlayn ta'lim eng to'g'ri yo'l; Yo'l va yashash xarajatlari kamayadi.

Vaqtingizni tejang! O'quv markazlariga borish va qaytish vaqtida transport kutish uchun ketadigan vaqtingizni tejashingiz mumkin. Onlayn ta'limda siz istagan hududda turib ta'lim olasiz;

Istalgan joyda va vaqtda ta'lim olish imkoniyati.

Moslashuvchanlik: Ishlaydigan yoki boshqa sabablarga ko'ra to'liq kunduzgi ta'limda qatnasha olmaydiganlar, yosh bolali ayollar uchun qulay.

Kamchiliklari:

Chalg'ish ehtimoli yuqori. Yuzma-yuz muloqot qilish uchun o'qituvchilar va kutilayotgan topshiriqlar haqida har doim eslatuvchi kursdoshlar yo'q. Agar talaba masofaviy o'qitish kursini yakunlamochi bo'lsa, o'zini g'ayratli va diqqatli qilishi kerak, topshiriqlarni vaqtida bajarib, o'qishga layoqatsizlik qilmasligi kerak.

Tarmoqdan ayrilish. Onlayn bilim olishning eng katta dushmani bu internetning sekin ishlashi yoki aloqa uzilib qolishi. Bu vaziyatda talabaning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishi va layoqati so'nishi yoki asabiylashishiga olib keladi.

O'quv motivatsiyasining pastligi: O'zini nazorat qilish va doimiy rag'batlantirish muammolari.

Amaliy mashg'ulotlarning murakkabligi: Laboratoriya yoki ko'nikma talab qiladigan fanlar uchun samaradorlik pasayishi mumkin.

Yana bir savol tug'iladi masofaviy ta'limdan kelajakda qo'llasa bo'ladimi, kelajagi bormi ?

Masofaviy ta'lim kundan kunga rivojlanib bormoqda va sun'iy intellekt, virtual haqiqat kabi texnologiyalar uni yanada takomillashtirmoqda. Ayniqsa pandemiya davrida masofaviy ta'limning ahamiyati va imkoniyatlari ko'pchilikka ayon bo'ldi.

Masofaviy ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib, ta'lim oluvchilarga ko'proq imkoniyat yaratmoqda.

Dunyoda ko'pgina oliy ta'lim muassasalari, yirik korxonalar mutaxassislar malakasini oshirish maqsadida, masofaviy o'qitish tizimidan foydalangan holda, yiliga millionlab pul mablag'larini tejamoqda. Shu bilan birga, bunday tizimdan nogironligi bo'lgan shaxslar, uzoq hududlarda yashovchi bolalar ham foydalanishlari mumkin.

Masofaviy ta'limning tashkiliy-iqtisodiy afzalliklari ham mavjud bo'lib, masalan, o'qitish uchun o'quv xonalari, stollar va boshqa o'quv qurollari zarur emas. Moliyaviy xarajatlar asosan o'quv-uslubiy materiallar tayyorlash va internet trafigi uchun sarflanadi. Tabiiyki, bunda xarajatlar kamayadi. O'quv-uslubiy materiallar qanchalik tushunarli va batafsil bo'lsa, talabaga shunchalik foydali bo'ladi

Masofaviy ta'lim kelajagi texnologik rivojlanish, talabalar ehtiyojlari va global o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq. Bu yo'nalishning istiqbollari quyidagicha tasvirlanishi mumkin:

1. Texnologiyalar integratsiyasi

Sun'iy intellekt (AI), virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) kabi texnologiyalar masofaviy ta'lim sifatini oshiradi. Masalan, virtual laboratoriyalar amaliy mashg'ulotlarni osonlashtiradi.

2. Individuallashtirilgan ta'lim

AI yordamida har bir talabaning qobiliyat va ehtiyojiga moslashtirilgan o'quv dasturlari yaratiladi, bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi.

3. Qulay va global ta'lim imkoniyatlari

Internet orqali dunyoning istalgan nuqtasidan bilim olish imkoniyati kengayadi, ta'lim global darajada ommalashadi.

4. Ta'lim xarajatlarining pasayishi

Masofaviy ta'lim an'anaviy ta'lim shakliga qaraganda arzonroq bo'lib, ko'pchilik uchun yanada qulay bo'ladi.

5. O'z-o'zini o'qitish va ko'nikmalarni rivojlantirish

Ochiq platformalar va onlayn kurslar orqali mustaqil bilim olish ko'nikmalari mustahkamlanadi.

6. Kirish imkoniyati va inklyuzivlik

Jismoniy imkoniyati cheklangan yoki chekka hududlardagi kishilar uchun ta'lim olish imkoniyati yanada kengayadi.

7. O'qituvchilar rolining o'zgarishi

O'qituvchilar endilikda bilim beruvchi emas, balki yo'l boshchi va maslahatchi sifatida faoliyat yuritishi kutilmoqda.

Masofaviy ta'lim kelajagi uzluksiz rivojlanib, turli qiyinchiliklarni yengib o'tish orqali yangi, samarali ta'lim modelini shakllantiradi. Bu jarayon, ayniqsa, global inqirozlar davrida (pandemiya kabi) o'zining dolzarbligini yaqqol namoyon qilmoqda.

Masofaviy ta'lim samarali bo'lishi mumkin, ayniqsa, nazariy bilimlarni o'zlashtirish va malaka oshirishda. Ammo amaliy bilim va insoniy muloqot talab sohalar uchun an'anaviy ta'lim hali ham afzal. Shuning uchun ta'lim tizimining kelajagi masofaviy va an'anaviy usullarni kombinatsiyalash orqali rivojlanishi kutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta'lim qulay. Bir vaqtning uzida ta'lim olish ham ishlash ham mumkin. Yana bir qulay va eng asosiy afzalligi uzimiz hoxlagan nufuzli va mashhur institut, universitetlarda uydan chiqmasdan turib ta'lim ola olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- 1) <https://uzmarkaz.uz> > news
- 2) <https://arxiv.uz>
- 3) Akhmedov, B. A., Makhkamova, M. U., Aydarov, E. B., Rizayev, O. B. (2020). Trends in the use of the pedagogical cluster to improve the quality of information technology lessons.